

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TASAVVUF TUSHUNCHASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433985>

**Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi**  
*Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi*  
*e-mail: axmadjonovajasmina070@gmail.com*  
*Telefon: +998 900703602*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, soʻz mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy asarlarida qoʻllanilgan tasavvufiy tushunchalar va ularning maʼnosi haqida soʻz boradi. Navoiy asarlaridagi tasavvufiy atamalarga berilgan izohlar keltirib oʻtilgan va yoritilgan. Badiiy adabiyotdagi ruhiyat tushunchasi alohida mavzu sifatida qaralib, tahlil qilingan.*

### **Kalit soʻz**

*ruhiyat, komil inson, tasavvuf, tushuncha, Alisher Navoiy, asar, xamsa, pandnoma, oshiq, mashuqa, jom, may, Alloh, ilohiyot, nazariya.*

### **Annotation**

*This article talks about mystical concepts and their meaning used in the works of the great thinker, the sultan of words, Hazrat Alisher Navoi. Explanations given to mystical terms in Navoi's works are cited and explained. The concept of spirituality in fiction is considered and analyzed as a separate topic.*

### **Key words**

*spirituality, perfect person, mysticism, understanding, Alisher Navoi, work, khamsa, pandnama, lover, mistress, jam, may, Allah, theology, theory.*

Buyuk mutafakkir, soʻz mulkining sultoni hazrat Navoiy oʻzining bebaho asarlari, sheʼriyati va asarlaridagi oʻzgacha ruhiyat sababli ham bugungi kungacha xalqimiz eʼtirofi va xurmatiga sazovor boʻlib kelmoqda. Buyuk shoirning asarlaridagi tasavvufiy atamalar va ular tashigan maʼnoga alohida eʼtibor qaratmasdan iloj yoʻq. Chunki, har qanday asarlarda ham uchrashi qiyin boʻlgan tasavvufiy tushunchalar va ular orqali ifodalangan nozik maʼnolar adabiyotdagi badiiy soʻz qudratini va qalam kuchini koʻrsata oladigan vositalardan biridir.

Alisher Navoiyning deyarli har bir ijod naʼmunasida ruhiyat va tasavvuf tushunchasini uchratishimiz mumkin. Hatto bu borada ulugʻ bobokalonimiz eng oliy pogʻonalarda turadi desak, adashmagan boʻlamiz. Chunki badiiy adabiyotimizga oʻzgacha ruh bagʻishlagan “Komil inson” tushunchasini ham

aynan Alisher Navoiy ilk marotaba o'zining shoh asari bo'lmish "Xamsa" asaridagi Farxod obrazi orqali olib kirgan.

Bizga ma'lumki Alisher Navoiy "G'azal mulkinging sultoni" deya e'tirof etiladi. Bundan esa ulug' alloma nafaqat nasrda, balki nazmda ya'ni lirikada ham tengsiz bo'lganini bilishimiz mumkun. Alisher Navoiy qalamiga mansub g'azal, ruboiy va tuyuqlar bugungi kunda nafaqat bizning mamlakatimizda, butun dunyoda ham sevib o'qiladi.

«Xazoyinu-l-maoniy»ning to'rtinchi devoni «Favoidu-l-kibar»da «fa» harfiga ajratilgan bo'limidagi to'rtinchi g'azal tasavvufning mo'jaz va sodda ta'rifiga bag'ishlangan. Ushbu g'azalning qisqa izohini e'tiboringizga havola qilmoqchimiz:

Birovga musallam tariqi tasavvuf-ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

(Tasavvuf ichki ziddiyatlardan xoli bo'lgan kishigagina o'z yo'lini ochadi).

Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq Erur, istilohoti zeb-u takalluf.

(Tasavvuf Allohning taqdiriga rozi bo'lganlarning yaxshi axloqi bo'lib, go'zal va takallufli atamaları bor).

Tasavvuf emas zuhd-u taqvo-yu toat-Ki, anda riyo yo'l topar betavaqquf.

(Tasavvuf to'xtovsiz riyokorlik yo'l topgan quruq «zuhd»-u «taqvo» va «toat» emas).

Erur mahz taqvo-yu lekin riyosiz Ubudiyat, sarf-u ayni talattuf.

(Tasavvufning mohiyati taqvo bo'lgani holda, riyosiz bandalik, to'liq berilish va boshqalarga iltifotli bo'lishdir).

Ne el qavlu fe'lig'a andin taaddiy, Ne Haq amru nahyig'a andin tasarruf.

(Bunda elning so'zi va qilmishiga ham, Haq taoloning buyruq va qaytariqlariga ham tajovuz yo'q).

O'zin o'yla beixtiyor anglabon kim, Ne qolib taraddud anga, ne taassuf.

(Shunda kishi beixtiyor o'zini anglab, unda ikkilanish va afsuslanishdan asar qolmaydi).

Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin, Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.

(Shuningdek, bu o'z borlig'ini Haq taoloning borlig'i oldida o'zni yo'q deb bilish kerak, Ey Navoiy, yuqoridagilarning barchasini tasavvuf yo'li deb bil).

G'azalning umumiy mazmunidan tushuniladiki, Navoiy nazdidagi tasavvuf inson qalbida osoyishtalik toptiruvchi, Allohning taqdiriga rozilik hissini uyg'otuvchi go'zal axloqlar majmuasidir. Tasavvuf ko'pchilik o'ylagani kabi tarkidunyochilik emas. Chunki tarkidunyochilikda odamlarning ko'ziga tashlanuvchi tashqi shakliy xo'jako'rsinlik paydo bo'ladi. Tasavvufda taqvo asos bo'lsada, u riyokorlikdan xoli bo'lmog'i kerak. Haqiqiy sufiy odamlarning ko'zi va so'zi uchun amal qilmaydi, balki Haq taoloning roziligi uchun yashay boshlaydi.

Shundagina u tom ma'nodagi xolislik va samimiyatga erishadi. Haq taoloning mavjudligini tan olgan banda o'zini yo'qdek, deb bilsa, Haqning xohish-irodasiga mutlaq tobe ekanini dildan tuysa, mana shu tasavvuf yo'lidir.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, Alisher Navoiy chinakam komil inson nomiga munosib shaxsdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", T. 2008.
2. Alisher Navoiy. "Xazoyin ul-maoniy" - "Badoe ul-vasat", o'n besh tomlik.
3. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror", mukammal asarlar to'plami, yigirma tomlik, 7-tom. T. 1992.
4. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", yigirma tomlik, 14-tom, T. 1998.
5. Alisher Navoiy. "Navodir ush-shabob", o'n besh tomlik, 2-tom. T. 1963.
6. Alisher Navoiy. "G'aroyib us-sig'ar", o'n besh tomlik, 1-tom. T. 1963.
7. Alisher Navoiy. "Favoyid ul- kibar", o'n besh tomlik, 4-tom. T.1965.
8. Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy", yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.
9. Alisher Navoiy. "Mezon ul-avzon", yigirma tomlik, 16-tom, T. 2000.